

**ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI
ADABIY O`ZIGA XOS JIHATLAR SHARHI**

*Tohirova Fariza Rustamjon qizi
SamDU filologiya fakulteti Adabiyotshunoslik
yo‘nalishi II bosqich magistranti*

Annotatsiya. Tezisda Navoiy ijodiy uslubiga xos determinizm qonuniyati, shoirning baroati istihlol san’atidan foydalanish mahorati “Saddi Iskandariy” dostonidagi fotiha baytning qiyosiy tahlili orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot, originallik, ijodiy ta’sir, Alisher Navoiy, an’ana.

KIRISH

Dunyo adabiyotshunosligi tarixning muayyan bosqichlarida adabiy hodisalarga nisbatan qiyosiy yondashuvning o‘sib borishi adabiy-estetik tafakkur va munosabatlar mazmunini kashf etish niyati bilan bog‘liq. Bugunga kelib dunyoning ko‘plab tadqiqot markazlarida adabiyotlararo va madaniyatlararo aloqalar bilan bog‘liq izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, zamonaviy adabiyotshunoslikda intertekstual tadqiqotlarga tobora ko‘pe’tibor qaratilmoqda, chunki adib yoki badiiy asarning dunyo miqqosida e’tirof etilishi, munosib baho olishi uchun unga madaniy muloqot va globallashuv kontekstida yondashish zarurati mavjud. Bu jarayonda komparativistika tayanadigan asosiy nuqtalar esa adabiy an’ana va ijodiy ta’sir hodisalaridir.

ASOSIY QISM

Xamsanavislik doirasidagi iskandarnomalar Sharqda yaratilgan Iskandar qissalarining oltin halqasi. Ular qadimgi davrdan muallif zamoniga qadar bo‘lgan folklor, diniy-tarixiy, adabiy-falsafiy merosning ensiklopedik umumlashmasi va hosilasi sifatida namoyon bo‘ladi. Iskandarnomalar va Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni bu jihatdan alohida e’tiborga molik, chunki ularda Sharq va G‘arb falsafasining integratsiyalashuvi, adabiy ta’sir qonuniyatlari, shuningdek, XII–XV asrlar mutafakkirlari dunyoqarashi hamda adabiy-estetik kashfiyotlarini aniqroq kuzatish mumkin [1].

Adabiy aloqalar tarixida turkiy va forsiy adabiyotlar o‘rtasidagi munosabatlar alohida o‘rin tutadi. Mazkur adabiyotlar orasidagi ko‘hna aloqalar rivoji, ularning hamisha baqamti taraqqiy etishi bevosita xamsanavislik hodisasi bilan ham bog‘liq. Xamsanavislik doirasida yaratilgan asarlarda mavzu, motiv, tasvir, obraz, kompozitsiya, hatto, talqin masalalarida har qancha uyg‘unlik bo‘lmisin, ularning har birida muayyan ijodkor falsafasi, uslubi aks etgan. Ba’zan bunday nuqtalar bir qarashda ko‘rinsa, aksariyat hollarda qayta-qayta mutolaadan so‘ng oydinlashadi. Badiiy adabiyotdagi an’ana va originallik hodisalari tadqiqida masalalarni katta-

kichik tarzida toifalash u qadar o‘zini oqlamaydi, chunki ba’zan kichik ko‘ringan jihat muayyan ijodkorning o‘ziga xosligini yoki shu ijodkorga xos uslubni ko‘rsatishi mumkin. “Saddi Iskandariy” dostonining fotiha bayti ana shunday kichik nuqtalardan biridek tuyulsa ham, Alisher Navoiy uslubi, an’ana chambarida o‘ziga xosligini namoyon etgan, bu boradagi mahoratini ko‘rsatib bergen baytlardandir. Mazkur baytda baroati istihlol san’ati ifodasining mumtoz namunasini ko‘rish mumkin. Biroq ushbu baroati istihlolni tadqiq etishdan oldin uning asar mavzusi bilan aloqasi, asar mavzusi haqida to‘xtalib o‘tish lozim [2].

Adabiy komparativistikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan tematologiya nuqtai nazaridan xamsanavislik doirasida yaratilgan iskandarnomalarining mavzulari e’tiborga molik [1]. Garchi iskandarnomalarining mavzulari genezisiga ko‘ra qahramonlik mavzulariga taalluqli bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan mualliflarning originallikka intilishi faqat asar nomining emas, mavzuning ham o‘ziga xoslik kasb etib borishiga olib kelgan. Firdavsiyning “Iskandarnoma”si qahramonlik mavzusida, Nizomiy “Iskandarnoma”si ham ko‘proq jangnoma xarakteriga ega, lekin unda mavzuga lirik, axloqiy-ma’naviy xususiyat ham qo‘shilgan. Xusravning “Oyinai Iskandariy”si qisman jangnoma, ko‘proq axloqiy-didaktik yo‘nalishga mansub. Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy” dostoni esa jangnomalik xususiyatini butunlay yo‘qotib, sof didaktik xarakter kasb etgan. Navoiy qo‘ygan nom (“Saddi Iskandariy”) ham asar mavzusini biror predmet yoki motivga aloqadordek ko‘rsatsa-da, mazmunan qahramonlik va axloqiy-ma’rifiy jihat tenglik hosil qilgan. Shu tarzda, nomlardagi turfalik mavzulardagi o‘zgarishlarni aks ettirib borgan. Bunday o‘ziga xoslikni xamsanavislik doirasida yaratilgan iskandarnomalarining fotiha baytlari misolida ham kuzatish mumkin. Iskandarnomalarining mazkur o‘rinlarida ijodiy ta’sir va originallik hodisasi yaqol namoyon bo‘lgan [3].

Navoiyda ham asosiy maqsad Tangrining biru borligini ta’kidlash edi, shu bois undalma ilk misraning boshiga chiqarilgan. Tavhid hamd bo‘lgani uchun vahdoniyat sifatining bo‘lishi tabiiy, xuddi shu kabi asarning birinchi baytidayoq vohidlik sifatining al-Malik, ya’ni hukmdorlik sifati bilan bog‘lab bayon qilinishi asar mavzusi bilan aloqador. Navoiy baytidagi “xudoliq” so‘zini tangrililik deb emas, jahonpodsholik, ya’ni butun dunyoga hukmdorlik deb tushunish kerak, zero, baytda biror kishining Tangrilik da’vo qilayotgani yoki Tangriga nisbatan shak-shubha to‘g‘risida so‘z ketayotgani yo‘q, aksincha, hukmdorlik xususida so‘z boradi. Agar birinchi misrani “Ey Xudo, shubhasiz parvardigorlik senga xos” deb tushunsak, “Birov shahki, da’bi gadoliq sanga” degan ikkinchi misra bilan mantiqiy bog‘lanish uzilib qoladi. Birinchi misrani “Ey Xudo, hukmdorlik shak-shubhasiz sengagina xos” tarzida tushunsak, ikkinchi misradagi “kimda- kim shoh bo‘lmasin, odati senga gadolik qilishdir” degan mazmun bilan bog‘lanish paydo bo‘ladi [4].

XULOSA VA MUNOZARA

Salaflaridan farqli ravishda Alisher Navoiyning fotiha baytida tavhid g‘oyasining dunyoviy shohlikka oid mohiyati bilan bog‘lab talqin etilishi ham o‘ziga xoslik, aslida. Chunki Navoiy chinakam shohlik mutlaq ehtiyojsizlik, har qanday ehtiyojmandlik esa gadolikdir, degan qarash tarafdoi edi. Navoiy shu tariqa butun doston fano konsepsiysi asosiga qurilganini birinchi baytdayoq ifodalab beradi va butun doston davomida turli tafsilotlar bilan ana shu konsepsiyanı tasvirlab boradi. Bu holni adabiyotda determinizm qonuniyati ifodasining klassik namunasi sifatida baholash mumkin. Har bir muallif fotiha baytga o‘z asari mavzusi, adabiy maqsad va bayt joylashgan bobdan kelib chiqib, muayyan o‘zgartirishlar kiritib borgan. Bu boradagi ishlar Navoiyning baroati istihlolida o‘z takomiliga yetgan bo‘lib, unda muallifning asardan ko‘zlagan bosh g‘oyasi aniq sezilib turadi va keyingi qismlarda tadrijiy rivojlantiriladi. Navoiyning salaflariga nisbatan asosiy yangiligi ham mana shunda edi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Firdavsiy A. Shoxnoma: iborat az 9 jild. Jild 7. — Dushanbe: Adib, 1989.
2. Ganjaviy N. Xamsa: Iskandarnoma. — Dushanbe: Adib, 2012.— 480 s.
3. Dehlaviy X. Oinayi Iskandariy. Matni intiqodiy. — Moskva: Shýbai adabiyoti Xovar, 1977. — 377 s.
4. Navoiy A. Saddi Iskandariy. MAT. 20 tomlik. T.11. — Toshkent: Fan, 1993. — 640 b.